

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQ IJODKORLIGI JARAYONIDA
YOSHLAR ISHTIROKINING ROLI

Azizqulova Farzona Ixtiyorovna

Toshkent Xalqaro Universiteti

Yurisprudensiya Fakulteti

1-bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.06.2026

Revised: 07.06.2026

Accepted: 08.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*huquq ijodkorligi,
qonunchilik tashabbusi,
yoshlar parlamenti,
huquqiy madaniyat,
raqamli huquq,
"O‘zbekiston – 2030"
strategiyasi.*

Mazkur maqolada zamonaviy huquq ijodkorligi jarayonida yoshlarning o‘rni, ularning intellektual salohiyati va ijtimoiy-siyosiy faolligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda yoshlarning ishtirok etish mexanizmlari, xususan, qonun loyihalari muhokamasidagi takliflar dinamikasi o‘rganilgan. Shuningdek, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning davlat boshqaruvidagi ulushi (35% dan 48% gacha o‘sishi) statistik tahlil qilingan.

KIRISH: Huquq ijod etish davlatning yuridik normalar yaratishga qaratilgan maxsus faoliyatidir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning irodasini qonun darajasida ifoda etadi. Huquq ijodkorligi jarayonida yangi huquq normalari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Huquq manbalarida aval davlat hokimiyati organlari faoliyatini maqsadi, vazifalari va funksiyalarining mazmuni hamda huquqiy doiradagi muayyan ijtimoiy munosabatlarda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari o‘z ifodasini topadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda qonunchilik loyihalari bo‘yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarda jamiyatimizning har bitta a‘zosi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Olib boriladigan islohotlarni tub mohiyati keladigan bo‘lsak, xalq irodasini aniqlash va shakllantirish, rasmiy qoida darajasiga ko‘tarish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan va boshqa qoidalardan iboratdir.

Huquq ijodkorligi har qanday umummajburiy normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishni anglatadi, qonun ijodkorligi aynan parlament tomonidan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega hujjatlarni yaratish bilan bog‘liq.

Huquq ijodkorligi – huquq yaratishning murakkab jarayoni sifatida: Jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarining normative-huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayondir.

Huquq ijodkorligi – bu vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, ularga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatdir.

Huquq ijodkorligi huquq yaratishning nisbatan kengroq bo’lgan jarayon tarzidagi tarkibiy qismi hisoblanadi⁵.

Huquq ijodkorligining asosiy belgilari:

1. davlat faoliyatining turi
2. ijodiy jarayon
3. maqsadga yo’naltirilganlik
4. murakkab jarayonligi
5. huquqiy natija

Huquq ijodkorligi huquq normalarini yaratish, takomillashtirish, o’zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan davlat faoliyati shakli singari o’ziga xos jarayon sifatida asosiy qoidalar – prinsiplarga egadir.

Prinsip – biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash vas hu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadi⁶.

Huquq ijodkorligi har qanday umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlar(NNH)ni qabul qilishni anglatsa, qonun ijodkorligi aynan parlament tomonidan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega hujjatlarni yaratish bilan bog’liq.

Mezon	Huquq ijodkorligi	Qonun ijodkorligi
Qamrovi	Keng – barcha NNHlar	Tor – faqat qonunlar
Subektlari	Barcha vakolatli organlar	Parlament yoki referendum
Natijasi	Qonunlar+qonunosti hujjatlar	Oliy yuridik kuchga ega qonun
O’zaro nisbati	Umumiy tushuncha	Xususiy tushuncha qismi

⁵ Qarang: Odilqoriyev X.T.,Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T., 2011,34-bet.

⁶ O’zbek tilining izohli lug’ati / A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,309-bet.

Huquq ijodkorligining funksiyalari:

1. davlat funksiyalarini amalga oshirish
2. ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash
3. norma ijodkorligi
4. xalq irodasini rasmiylashtirish
5. xalqaro normalarni implementatsiya

Davlat hokimiyati yuridik qonunlarsiz o'z amalini topolmaydi. Shu sababli davlat ijobiy qonunchilik yuritadimi yoki sifatsizmi, bundan qat'i nazar, maz-kur faoliyatni albatta amalga oshiradi. Bu faoliyat bo'lmasa, hech bir masala siyosiy ahamiyatlilik darajasiga ko'tarila olmaydi. Zero, fuqarolik jamiyatining hamma ehtiyojlari ham... qonun tariqasida umumiy e'tirofga sazovor bo'lish uchun muqarrar ravishda davlat irodasi orqali o'tadi⁷.

Huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarga va hujjatlarning xususiyatiga ko'ra quyidagi **asosiy turlarga** ajratiladi:

- **Bevosita huquq ijodkorligi:** Bu xalq irodasining eng oliy ifodasi bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar (masalan, Konstitutsiya yoki o'ta muhim qonunlar) umumxalq referendumini orqali bevosita qabul qilinadi va referendum jarayonlari shaffoflik asosida bo'ladi.

- **Davlat organlarining huquq ijodkorligi:** Bu eng keng tarqalgan tur bo'lib, unga vakolatli jamoaviy organlarning faoliyati kiradi. Bunga Oliy Majlis palatalari (qonunlar qabul qilish), Vazirlar Mahkamasi (qarorlar chiqarish) hamda vazirlik va idoralarning faoliyatini misol qilish mumkin.

- **Mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi:** Davlat mexanizmidagi muayyan vakolatga ega shaxslar tomonidan normativ hujjatlar qabul qilinishidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, vazirlarning buyruqlari yoki hokimlarning qarorlari ushbu turga mansubdir.

- **Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi:** Mahalliy Kengashlar va hokimliklar tomonidan faqat muayyan hudud (viloyat, tuman yoki shahar) doirasida amal qiluvchi normativ hujjatlarni yaratish jarayonidir.

Chiqarilgan qonunlar yuridik jihatdan yuqori turuvchi huquqiy hujjatga zid bo'lmasligi kerak. Qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi, avvalo, qonun chiqaruvchi organ hamda ijroiya hokimiyat yuqori organlari uchun ham dasturulamaldir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan «Harakatlar strategiyasi»da qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash masalalariga nihoyatda jiddiy e'tibor qaratilganligi tahsinga loyiq⁸.

Strategiya „O'zbekiston – 2030“: Yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni islohotlarning drayveriga aylanirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

⁷ Marks K, Engels F. Tanlangan asarlar. – T., 1981, 3-jild. – 435-bet.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr. – T.: <<Adolat>>, 2017. – 4-bet.

Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi uchun (regulation.gov.uz): har bir fuqaro, jumladan yoshlar ham yangi qonun loyihalari bo'yicha o'z taklif va e'tirozlarini qoldirishi mumkin.

„Yoshlar parlamenti“: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzurida tashkil etilgan bo'lib, ular bevosita qonun loyihalarini ekspertiza qilishda qatnashadilar. Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirish jarayonida yoshlarning faol ishtirok etishini yanada kengaytirish, ularning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunlar qabul qilinishi jarayonini hamda fraksiyalararo raqobat va tortishuvlar asosida o'tadigan majlislarni o'z ko'zi bilan ko'rishi, deputatlar bilan muloqot qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tendensiyalarni tezroq qabul qiladi, bu esa o'z ornida qonunlarning zamonaviy bo'lishini ta'minlaydi. Qonunlar qabul qilish jarayonida yoshlar ishtirokini yildan yilga kengaytirish va ular tomonidan tushayotgan qonun loyihalari bo'yicha takliflarni yetarlicha o'rganib chiqish ham qonunchilik tizimini tamolillahstirishda yaxshigina rol o'ynaydi. Huquqiy klinika va ekspertizalarning tashkil qilinishi hamda ularga yurisprudensiya yo'nalishi talabalarning qonun loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertiza qilish jarayoniga amaliyotchi etilishi sifatida jalb ham ahamiyatlidir.

8-avgust 2018-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5505-sonli „Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“gi Farmoni qabul qilinganligini aytib o'tishimiz mumkin. Farmonga ko'ra, „norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- qonunchilik bazani taizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligini ta'minlash;
- norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- norma ijodkorligida „aqli tartibga solish“ modeli elementlarini qo'llash;
- norma ijodkorligi faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirish”⁹.

Yoshlar nimaga huquq ijodkorligida faol bo'lishi kerak?

1. Ertangi kun egasi sifatida, bugun qabul qilayotgan qonun kelgusida qariyb 30-40 yil davomida yashaydilar
2. Yoshlar muammolarga standart qoliplardan tashqari, innovatsion yechimlar taklif qila olishlari
3. Qonun ijodkorligida qatnashgan yosh fuqaro qonunlarni buzmaydi va qonunlar buzilishiga yo'l ham qoymaydi .

Yosh avlod bugungi kun muammolarini an'anaviy qolipda emas, balki innovatsion yondashuvlar orqali ko'ra oladi. Masalan, startaplar, kreativ industriya kabi iqtisodiy

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5505-sonli „Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“gi Farmoni. 2018-yil.

yo'nalishlarni huquqiy tartibga solishda aynan shu sohada faol bo'lgan yoshlarning takliflari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda huquq sohasiga „Raqamli huquq“ tushunchasi shiddat bilan kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt, kibrxavfsizlik, kripto-aktivlar va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi kabi murakkab sohalarda qonun loyihalarini tayyorlash texnologiyalarni mukammal tushunadigan yosh mutaxassislar zimmasiga tushmoqda. Yoshlar huquq ijodkorligida faqat matn yozish bilan cheklanmay, qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonini ham raqamlashtirishmoqda. Shuningdek, qonun loyihalari jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladigan portallarda yoshlarning faolligi, ularning qoldirayotgan sharhlari va yechimlari qonunlarning hayotiyligida yaqqol namoyon bo'lib turadi.

Yoshlarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki, birinchi navbatda, huquqiy tizimga yangi qon, yangicha dunyoqarash olib kiradi. Yoshlarning bugungi kundagi muammolarga ertangi kun ko'zi bilan ko'ra olishlari ularning qonunchilikdagi ishtiroki qonunlarning eskirib qolishini oldini oladi va kelajakka moslashuvchanligini ta'minlaydi. Qonun ijodkorligida yoshlarning roli shunchaki rasmiyatchilik emas, balki davlatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun zaruriyatdir.

O'zbekistondagi siyosiy partiyalarda yoshlar ishtirokiga oid asosiy ko'rsatkichlari:



Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2018-yilgi yoshlar strategiyasida to'rtinchi ustuvorlik sifatida belgilangan yo'nalishda ko'rsatib o'tilgan – yoshlarning siyosiy va jamoatchilik ishida ishtirok etishini faol rag'batlantirish, barcha darajada siyosiy va ijtimoiy

jarayonlarda ishtirok etishiga ko'maklashish¹⁰ kabilarni tizimli ravishda amalga oshirib borish maqsadga muvofiq.

XULOSA: Huquq ijodkorligi asosan jamiyatda o'zboshimchalik hamda taribsizliklarni oldini oladi. Zamonaviy huquq ijodkorligi xalqaro standartlarga tayanadi. Qonunlar kuchlilarning kuchsizlar ustidan hukmronligini cheklaydi. Yoshlardagi huquq ijodkorligi kam ta'minlangan qatlamlar, ayollar, bolalar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun huquqiy himoya kafolatlarini yaratadi. Bundan tashqari dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonunchilik bazasi mukammal davlatlarda iqtisodiyot tez rivojlanadi.

Yoshlar qonunga zid xatti-harakat sodir etganlarida ularning adolatga bo'lgan huquqlari ta'minlanishi va asosiy e'tiroz jazoga emas, balki reabilitatsiyaga qaratilishi kerak. Undan tashqari hozirgi global davrda yoshlarimizni muammolar bilan ishlab, atroflicha yechimlar berishda faollik ko'rsatayotganliklari tahsinga sazovor albatta. Ushbu yutuqlarga qaramay, yoshlar orasida qonun ijodkorligi va ustuvorligini targ'ib qilishda ularning ishtiroki uchun imkoniyatlar yetarlicha emas degan tushunchalar ham yo'q emas. Shuning uchun, yoshlarni qonun ijodkorligi faoliyatiga tizimli jalb etish borasida yana bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak deb o'ylayman.

Huquq ijodkorligi jamiyatdagi tartibni saqlashning texnik vositasidir. Qonun ijodkorligida yoshlar nafaqat jazo berishni, balki odamlarni qanday qilib yaxshi yashashga o'rgatishni ham o'ylashlari kerak. Yoshlarning qonun loyihalari muhokamasidagi ishtiroki jamiyatda huquqiy onglik darajasini oshiradi. O'zi ishtirok etib yaratgan qonunga nisbatan fuqaroda hurmat va unga itoat qilish hissi yuqori bo'ladi.

O'zbekistonda huquq ijodkorligida yoshlar roli — bu mamlakatning demokratik yangilanishi va barqaror kelajagi garovidir. Yoshlarning intellektual salohiyati va kreativ yondashuvi qonunlarning hayotiy, adolatli va inson qadrini ulug'lovchi bo'lishini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Siyosiy partiyalar va parlament tuzilmalaridagi yoshlar ulushi oshishi mamlakatda kuchli kadrlar zaxirasini shakllantirmoqda. Bu jarayon yoshlarga davlat boshqaruvi mexanizmlarini ichkaridan o'rganish va ijtimoiy lift orqali yuqori darajadagi qarorlar qabul qilish jarayoniga chiqish imkonini beradi. Yoshlar qonunlarning tushunarli, shaffof va raqamli dunyoga mos bo'lishini ta'minlamoqda.

Biz kelajak avlodning tashabbusi bilan qabul qanday xoh katta xoh kichik qonun-qoidalar bo'lsin ular albatta davlat rivoji jamiyat ravnaqiga xizmat qilishi kerak. Bundan tashqari ular insonni qadrini ulug'laydigan, jamiyatda tenglikni o'rnatadigan va har bir shaxsga o'z salohiyatini namoyon etish uchun xavfsiz muhit yaratib beradigan qoidalar majmui bo'lishi shart.

So'ngi so'z o'rnida Santyago Ninoning quyidagi fikrini keltirib o'tmoqchiman: "Huquq ijodkorligi — bu shunchaki qog'ozga buyruq yozish emas, balki jamiyatning axloqiy qadriyatlarini huquqiy tilga tarjima qilishdir."

¹⁰ AQSHning Oq Uy web-sayti [The White House](https://www.whitehouse.gov)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. Toshkent 2011.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati / A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Marks K, Engels F. Tanlangan asarlar 1981,3-jild.
4. [274-IV-coh 18.05.2020. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida](#)
5. Davlat va huquq nazariyasi/mas'ul muharrirlar X.B. Boboyev, X.T. Odilqoriyev. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.
6. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. — T.: Yuridik adabiyotlar puplish, 2022.
7. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. 1-jild. — T.: Adolat, 2001.

